
№5 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№5 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD
Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING DIAGNOSTIK MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

Atamuratov Dilshod
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. dotsenti, PhD
E-mail: dilshod.official5599@gmail.com
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-3441-9703

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Beshta mezon - bilim, munosabat, amaliy-kommunikativ, kasbiy-metodik va reflektiv mezonlar - hamda ularga mos ko‘rsatkichlar va diagnostika usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: millatlararo muloqot madaniyati, diagnostik mezon, bo‘lajak o‘qituvchi, ko‘rsatkich, tolerantlik, kasbiy tayyorgarlik, diagnostika, pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, oliy ta’lim.

ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К РАЗВИТИЮ КУЛЬТУРЫ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация: В данной статье проанализированы диагностические критерии и показатели готовности будущих учителей к развитию культуры межнационального общения. Освещены пять критериев - знаниевый, ценностно-отношенческий, практико-коммуникативный, профессионально-методический и рефлексивный - а также соответствующие показатели и методы диагностики.

Ключевые слова: культура межнационального общения, диагностический критерий, будущий учитель, показатель, толерантность, профессиональная подготовка, диагностика, педагогика, компетентностный подход, высшее образование.

DIAGNOSTIC CRITERIA AND INDICATORS FOR PREPARING FUTURE TEACHERS TO DEVELOP A CULTURE OF INTERETHNIC COMMUNICATION

Abstract: This article examines the diagnostic criteria and indicators of prospective teachers' readiness for developing a culture of interethnic communication. Five criteria - knowledge, value-attitude, practical-communicative, professional-methodical, and reflective - along with corresponding indicators and diagnostic methods, are examined.

Keywords: culture of interethnic communication, diagnostic criterion, prospective teacher, indicator, tolerance, professional training, diagnostics, pedagogy, competence-based approach, higher education.

KIRISH

Bugungi globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalarning kengayishi sharoitida turli millat va elat vakillari bilan samarali muloqot qila olish shaxsning muhim ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ta’lim jarayonida turli madaniy, milliy va ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgan shaxslarning o‘zaro hamkorligi o‘qituvchidan yuqori darajadagi muloqot madaniyati, bag‘rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hamda madaniy farqlarni to‘g‘ri anglash qobiliyatini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Millatlararo muloqot madaniyati turli millat va elat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, tushunish, hamkorlik va samarali kommunikativ munosabatlarni ta’minlovchi bilim, qadriyat, ko‘nikma va xulq-atvor me’yorlarining yaxlit tizimini ifodalaydi. Mazkur madaniyatning shakllanganligi shaxsning boshqa millat vakillarining tili, urf-odatlari, an’analari, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlariga nisbatan xolis va hurmatli munosabatida, turli madaniy farqlarni tabiiy holat sifatida qabul qila olishida hamda muloqot jarayonida nizoli vaziyatlarning oldini olish va ularni konstruktiv hal etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi uchun esa ushbu sifatlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlash jarayoni faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi. Unda talabalarning turli milliy va madaniy qadriyatlarga munosabati, kommunikativ xulq-atvori, tinglash va tushunish ko‘nikmalari, empatik yondashuvi, nizoli vaziyatlarda murosaga kelish qobiliyati hamda o‘zining muloqot faoliyatini tahlil qila olishi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur tayyorgarlikning samaradorligini aniqlash

uchun uning mezonlari va ko‘rsatkichlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash alohida dolzarblik kasb etadi.

Diagnostik mezonlar bo‘lajak o‘qituvchilarning millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorgarlik darajasini obyektiv aniqlash, mavjud holatni baholash va ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta’sirlarning samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Bunda mezonlarni faqat bilimlarning mavjudligi bilan chegaralash emas, balki shaxsning qadriyatli munosabati, kommunikativ faoliyati, amaliy xulq-atvori va refleksiv qobiliyatlarini ham qamrab olish zarur. Shunday yondashuvgina bo‘lajak o‘qituvchining millatlararo muloqotga tayyorgarligini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Mazkur jarayonda diagnostik mezonlar sifatida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Motivatsion-qadriyatli mezon talabaning millatlararo hamkorlikka bo‘lgan qiziqishi, boshqa millat vakillariga hurmati va bag‘rikenglik munosabatini; kognitiv mezon millatlar, madaniyatlar, urf-odatlar va millatlararo munosabatlar haqidagi bilimlarini; kommunikativ-faoliyatli mezon turli millat vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatish va amaliy vaziyatlarda tegishli kommunikativ strategiyalarni qo‘llash qobiliyatini; refleksiv mezon esa o‘zining muloqot faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash va takomillashtirishga intilishini ifodalaydi.

Diagnostik ko‘rsatkichlarni belgilashda esa har bir mezonning amaliy jihatdan kuzatiladigan va baholanadigan jihatlariga e’tibor qaratish muhimdir. Jumladan, millatlararo muloqotga ijobiy munosabat, madaniy xilma-xillikka hurmat, millatlararo munosabatlarga oid bilimlarning yetarliligi, muloqot jarayonida tinglash va fikrni to‘g‘ri ifodalash, empatiya, tolerant xulq-atvor, nizoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish, o‘z faoliyatini baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish kabi ko‘rsatkichlar bo‘lajak o‘qituvchining tayyorgarlik darajasini aniqlashda muhim diagnostik mezon bo‘lib xizmat qiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Bo‘lajak o‘qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlash darajasini obyektiv baholash uchun aniq diagnostik mezonlar va ko‘rsatkichlar zarur [1]. Aniq mezonlarsiz tayyorgarlik faqat sifat jihatidan, mavhum baholanadi.

Kompetensiyalarni diagnostika qilish metodologiyasi A.V. Xutorskoy [1]ning ishlarida, madaniyatlararo sezgirlik modeli M. Bennet [2]ning tadqiqotlarida asoslangan. Ko‘p millatli ta’lim nazariyasi J. Banks [3]ning ishlarida yoritilgan. Mahalliy pedagogika fanida B. Karimov [4], Z. Tolipov [5]ning ishlarida diagnostik mezon va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishning umumiy tamoyillari tahlil qilingan. Ushbu mezon va ko‘rsatkichlarni ilmiy jihatdan tizimli ishlab chiqish mazkur

maqolaning dolzarbligini belgilaydi [2, 3]. Aynan millatlararo muloqot madaniyatiga xos diagnostik mezon va ko‘rsatkichlarni tizimli tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar mahalliy fanda hali yetarli darajada mavjud emas, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Bilim mezoni talabaning millatlararo munosabatlar nazariyasi va etnopsixologiya asoslarini bilish darajasini aks ettiradi [1], u yozma test va og‘zaki so‘rov orqali diagnostika qilinadi. Munosabat (qadriyat) mezoni esa turli millat va madaniyatlarga nisbatan hurmat va tolerant munosabat darajasini anglatadi [2], u tolerantlik darajasini o‘lchovchi so‘rovnoma orqali baholanadi.

Amaliy-kommunikativ mezon talabaning turli madaniy kelib chiqishga ega suhbatdosh bilan samarali muloqot qila olish darajasini aks ettiradi [3], u amaliy vaziyat-topshiriq va kuzatuv orqali diagnostika qilinadi. Kasbiy-metodik mezon millatlararo muloqot madaniyatini o‘quvchilarga metodik jihatdan to‘g‘ri o‘rgata olish darajasini anglatadi [4], u pedagogik amaliyot davomidagi kuzatuv orqali baholanadi. Nihoyat, refleksiv mezon o‘z munosabati va xatti-harakatini tanqidiy anglash darajasini aks ettiradi [5], u refleksiv esse va portfolio tahlili orqali diagnostika qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlash jarayonining samaradorligini aniqlashda diagnostik mezon va ko‘rsatkichlarning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur tayyorgarlikni faqat nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi bilan baholash o‘qituvchi shaxsining millatlararo muloqotga real tayyorgarligini to‘liq aks ettira olmaydi. Bo‘lajak pedagogning boshqa millat vakillariga munosabati, muloqot jarayonidagi xulq-atvori, madaniy farqlarni anglash darajasi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal eta olishi va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati ham kompleks diagnostik baholashni talab qiladi.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan, bo‘lajak o‘qituvchilarning millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorgarligini baholashda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv mezonlarni asosiy mezonlar sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Mazkur mezonlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning majmuaviy namoyon bo‘lishi talabaning millatlararo muloqotga tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Motivatsion-qadriyatli mezon bo‘lajak o‘qituvchining millatlararo muloqotga bo‘lgan ehtiyoji, qiziqishi va ijobiy munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu mezonning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida turli millat va elat vakillari bilan muloqot qilishga qiziqish, madaniy xilma-xillikka hurmat, bag‘rikenglik, boshqa xalqlarning urf-odatlari va an’analarini qadrlash, millatlararo hamkorlikning ijtimoiy

ahamiyatini anglash hamda stereotipik qarashlardan voz kechishga intilishlarni ko‘rsatish mumkin. Mazkur mezon yuqori darajada shakllangan talaba turli millat vakillari bilan muloqotni muammo sifatida emas, balki o‘zaro anglashuv va tajriba almashish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Kognitiv mezon bo‘lajak o‘qituvchining millatlararo munosabatlar, madaniyatlar xilma-xilligi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va madaniyatlararo kommunikatsiyaning asosiy tamoyillari haqidagi bilimlarini ifodalaydi. Uning ko‘rsatkichlari qatoriga millatlararo muloqotning mazmun-mohiyatini tushunish, turli madaniyatlarning o‘ziga xos jihatlarini bilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligini anglash, madaniy farqlarning muloqot jarayoniga ta’sirini tushuntira olish hamda millatlararo munosabatlarga oid pedagogik bilimlardan foydalanish qobiliyatini kiritish mumkin. Bunda bilimlarning shunchaki mavjudligi emas, balki ularni pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda qo‘llay olish darajasi asosiy ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ-faoliyatli mezon bo‘lajak o‘qituvchining millatlararo muloqot jarayonida egallagan bilim va qadriyatlarini amaliy faoliyatda namoyon eta olish imkoniyatini belgilaydi. Ushbu mezonning ko‘rsatkichlari sifatida samarali tinglash, o‘z fikrini aniq va hurmat asosida ifodalash, suhbatdoshning nuqtayi nazarini tushunish, empatik munosabat bildirish, muloqot jarayonida pedagogik taktga rioya qilish, madaniy farqlarni hisobga olish, nizoli vaziyatlarda murosali yechim topish va turli kommunikativ strategiyalardan foydalana olish qobiliyatlarini ajratish mumkin.

Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ tayyorgarligini baholashda real va modellashtirilgan pedagogik vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, turli millat vakillari o‘rtasida yuzaga kelgan tushunmovchilikni hal qilish, o‘quvchining milliy qadriyatlariga hurmat bilan munosabat bildirish, madaniy stereotiplar namoyon bo‘lgan vaziyatda pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘l tanlash kabi topshiriqlar talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga ko‘chira olish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Refleksiv mezon esa bo‘lajak o‘qituvchining o‘z muloqot faoliyatini tahlil qila olishi va uni takomillashtirishga tayyorligini tavsiflaydi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari o‘zining muloqotdagi xatti-harakatlarini baholash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni anglash, boshqa millat vakillarining nuqtayi nazarini hisobga olish, kommunikativ qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va o‘z ustida ishlashga intilishdan iborat. Refleksiv qobiliyatning rivojlanganligi bo‘lajak pedagogning millatlararo muloqot jarayonida o‘z faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib borishiga imkon yaratadi.

Mazkur mezonlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasini yuqori, o‘rta va past darajalarga ajratish mumkin. Yuqori darajada talaba millatlararo muloqotning ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini chuqur anglaydi, turli madaniyatlar haqida yetarli bilimga ega bo‘ladi, muloqot jarayonida bag‘rikeng va empatik xulq-atvorni namoyon etadi hamda murakkab kommunikativ vaziyatlarda mustaqil va konstruktiv yechim topa oladi. O‘rta darajada mazkur sifatlarning ayrimlari shakllangan bo‘lsa-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashda muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi. Past darajada esa millatlararo muloqotga oid bilim va motivatsiyaning yetarli emasligi, madaniy farqlarni qabul qilishda qiyinchiliklar, kommunikativ vaziyatlarda stereotipik yondashuvlarning namoyon bo‘lishi va o‘z faoliyatini refleksiv baholashning sustligi bilan tavsiflanadi.

Diagnostik mezonlarni amaliyotga tatbiq etishda anketa-so‘rovnoma, test, suhbat, kuzatish, o‘z-o‘zini baholash, ekspert baholash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va faoliyat mahsullarini o‘rganish kabi diagnostik metodlardan foydalanish mumkin. Mazkur metodlarning birgalikda qo‘llanilishi natijalarning obyektivligini ta’minlashga yordam beradi. Masalan, anketa va testlar orqali talabaning bilim va munosabati aniqlansa, kuzatish va pedagogik vaziyatlar orqali uning real kommunikativ xulq-atvori baholanadi, o‘z-o‘zini baholash va refleksiv topshiriqlar esa shaxsning o‘z faoliyatiga munosabatini aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

Millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko‘rsatkichlari

№	Mezon	Ko‘rsatkichlari	Diagnostika usuli
1	Bilim mezoni	Millatlararo munosabatlar nazariyasi va etnopsixologiya asoslarini bilish darajasi	Yozma test, og‘zaki so‘rov
2	Munosabat (qadriyat) mezoni	Turli millat va madaniyatlarga nisbatan hurmat va tolerant munosabat darajasi	Tolerantlik darajasini o‘lchovchi so‘rovnoma, munosabat shkalasi
3	Amaliy-kommunikativ mezon	Turli madaniy kelib chiqishga ega suhbatdosh bilan samarali muloqot qila olish darajasi	Amaliy vaziyat-topshiriq, kuzatuv
4	Kasbiy-metodik mezon	Millatlararo muloqot madaniyatini o‘quvchilarga metodik jihatdan to‘g‘ri o‘rgata olish darajasi	Pedagogik amaliyot davomidagi kuzatuv, dars tahlili
5	Reflektiv mezon	O‘z munosabat va xatti-harakatini tanqidiy anglash va takomillashtirish darajasi	Reflektiv esse, portfolio tahlili

Diagnostika jarayonida mezon va ko‘rsatkichlarning o‘zaro muvofiqligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Har bir mezon aniq, kuzatiladigan va baholanadigan ko‘rsatkichlar orqali ifodalanishi, ko‘rsatkichlar esa talabaning rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini berishi kerak. Shu bilan birga, diagnostik baholash bir martalik jarayon sifatida emas, balki tayyorgarlikning boshlang‘ich, oraliq va yakuniy bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz monitoring tizimi sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Beshta mezonni tahlil qilish jarayonida ularning ko‘rsatkichlari va diagnostika usullari tizimlashtirildi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mezonlar bilimdan tortib refleksiv anglashgacha bo‘lgan barcha jihatlarni qamrab oladi, bu esa tayyorgarlikni har tomonlama diagnostika qilish imkonini beradi.

XULOSA

Bo‘lajak o‘qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashni obyektiv baholash beshta mezon - bilim, munosabat, amaliy-kommunikativ, kasbiy-metodik va refleksiv mezonlar - asosida amalga oshiriladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu mezonlarga asoslangan standartlashtirilgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta’limning muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Millatlararo munosabatlarning tobora kengayib borishi, ta’lim muhitining madaniy jihatdan xilma-xillashuvi va turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi kommunikativ aloqalarning kuchayishi bo‘lajak pedagoglardan yuqori darajadagi muloqot madaniyati, bag‘rikenglik, empatiya va madaniy farqlarni to‘g‘ri anglash kompetensiyalarini talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko‘rsatkichlarini tizimli ravishda qo‘llash ta’lim jarayonining mavjud holatini aniqlash, pedagogik ta’sirlarning samaradorligini baholash hamda aniqlangan ehtiyojlar asosida metodik jarayonni takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur diagnostik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda millatlararo hurmat, bag‘rikenglik, kommunikativ kompetentlik va madaniyatlararo hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. - М.: Народное образование, 2003. - 58 с.
2. Bennett M.J. Developmental Model of Intercultural Sensitivity // International Encyclopedia of Intercultural Communication. - 2017.
3. Banks J.A. An Introduction to Multicultural Education. - Boston: Pearson, 2014. - 208 p.
4. Karimov B. Etnopedagogika va millatlararo munosabatlar madaniyati. - Toshkent: O‘qituvchi, 2016. - 196 b.
5. Tolipov Z.T. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish. - Toshkent: Fan, 2013. - 184 b.
6. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 320 b.
7. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. - 256 b.
8. Jo‘rayev R.H., Tursunov Q.T. Pedagogik kompetentlik va kasbiy mahorat asoslari. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. - 224 b.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: TIZIMLI TAHLIL VA STRATEGIK YONDASHUVLAR **Zamira Nishanova**	**6**
OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA MIKRO VA MAKRO MUHIT OMILLARI: MILLIY TARBIYA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZORAT TIZIMI **Jabborov Xazrat Xusenovich**	**12**
XOTIN-QIZLAR MUTAASSIBLIK HOLATINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI **Akramov Mirmuxsin Rustamovich**	**24**
SHAXS INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK TA’SIRI **Ashurov Ramzidin Ramazonovich**	**34**
PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI O‘RGANISH NATIJALARI **Botirova Dilafro‘z Bozorovna**	**43**
OTA-ONA VA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNI GARMONIZATSIYALASHDA AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI **Samatova Sevara G‘ayratovna**	**50**
STRESSNI YENGIB O‘TISHDA MOTIVATSION VA IRODAVIY RESURSLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich**	**63**
NEVROZ TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI **Abduraximov Doniyor**	**77**
BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION OMILLARNING AHAMIYATI **Rasulov Zokir Pardayevich**	**86**
UMUMTA’LIM MAKTABLARI TARIX DARSLARIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH **Rasuljon Atamuratov**	**93**

TALABALARIDA AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI **Ergashev Bunyod Shokir o‘g‘li**	**100**
SIYOSIY NUTQNING O‘RNI VA AHAMIYATI **Xalilova Ruxsora Raupovna**	**110**
TALABALARNING SPEAKING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH **Rasulova Moxira Abdujalilovna**	**117**
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING DIAGNOSTIK MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI **Atamuratov Dilshod**	**123**
USTOZDAN SHOGIRDGA: XALQ OG‘ZAKI IJODINING UZLUKSIZ AN’ANALARI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**131**
BUXORO AN’ANAVIY ME’MORCHILIGIDA TURAR-JOYLAR **Shamshod Karimov**	**139**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Jurnalda chop etilgan materiallardan to‘liq yoki qisman qayta foydalanilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** ilmiy-amaliy metodologik jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda 1564147-sonli guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan barcha maqolalar “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi hamda ilmiy ekspertiza va ikki tomonlama anonim taqriz (Double-Blind Peer Review) jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalda nashr etilgan materiallarning mazmuni, keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy natijalar va foydalanilgan manbalarning ishonchliligi hamda to‘g‘riligiga muallif(lar) mas’ul hisoblanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

***

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/ft
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz